O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

2026-yil 25-26-sentabr

(2-qism)

JIZZAX-2026

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2026-yil 25-26-sentabr. 315-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., т.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD) dots., Norbekova B.Sh. p.f.f.d.(PhD) dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

2. Henry, O. The Trimmed Lamp and Other Stories of the Four Million. New York: Doubleday, Page & Company, 1907. “The Last Leaf”. Project Gutenberg electronic edition.
3. Qahhor, A. O‘g‘ri: hikoyalar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
4. Qahhor, A. Anor. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021.
5. Qahhor, A. “Bemor”. Adabiyot. 6-sinf. 1-qism.
6. Nurmonov, A., Mahmudov, N. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent.
7. Benveniste, É. Problems in General Linguistics. Miami: University of Miami Press.

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ETNIK O‘ZLIKNI ANGLASH MASALALARI XUSUSIDA

Raxmatov Xayrulla Bozorboevich
O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar kafedrasi assistenti

To‘xtaxonova Aqidaxon To‘raxon qizi
Filologiya va tillarni o‘qitish: Ingliz tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi aholisi etnik tarkibi, hududiy joylashuvi hamda etnik o‘zlikni anglash xususiyatlari tarixiy-etnografik jihatdan tahlil etilgan. Unda amirlik hududida o‘zbek, tojik, turkman, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz va boshqa etnik guruhlarning joylashuvi, ularning til, diniy mansublik, xo‘jalik faoliyati va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari yoritilgan. Ayniqsa, Buxoro shahri aholisi misolida “o‘zbek”, “tojik”, “buxorolik”, “musulmon”, “forsiy”, “eroniy” kabi etnik va ijtimoiy identifikatsiya tushunchalarining mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyodagi etnik jarayonlarda “turklashuv” va “turkiylashuv” tushunchalarining tarixiy mazmuni tahlil qilinib, mazkur jarayonlarni faqat mahalliy aholining boshqa etnos tomonidan majburiy ravishda turklashtirilishi sifatida talqin qilish biryoqlama ekanligi asoslangan. Maqolada Buxoro amirligi hududida etnik o‘zlikning shakllanishida uzoq davom etgan etnomadaniy jarayonlar, turli etnik guruhlarning o‘zaro aralashuvi, diniy birlik va umumiy siyosiy-madaniy makonning muhim omil bo‘lganligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, etnik tarkib, etnik o‘zlik, etnik identifikatsiya, o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, qirg‘izlar, Buxoro shahri, buxorolik, musulmon, turkiylashuv, turklashuv, etnogenez, etnomadaniy jarayonlar, etnik jarayonlar, mahalla, Markaziy Osiyo.

Buxoro amirligining turli hududlarida milliy mansublik masalasi turlicha bo‘lgan. Bu masalada Buxoro shahri misolida tadqiqot olib borgan izlanuvchilar turli fikrlar bildirishgan.

Buxoro amirligining asosiy aholisini asosan o‘zbek va tojiklar tashkil etishi bilan birga, amirlikning Amudaryo qirg‘oqlari aholisining sezilarli bir qismi turkmanlardan iborat bo‘lgan. Shuningdek, Buxoro amirligining Zarafshon vodiysi shimolidagi cho‘l va dashtlarda qozoq va qoraqalpoqlar, amirlikning Badaxshon qismida esa o‘nlab kamsonli eroniy elatlar yashashgan[1].

Shuningdek, ayrim mahallalar (Arroki misgaron, Nodir-vays, So‘zangaron, Mag‘g‘oki attoron va h.k.)ning aholisi tojikcha so‘zlashib, o‘zlarini “tojik” deb hisoblashgan. Bu toifa aholining xo‘jalik hayoti va kasb-korida ko‘pincha hunarmandchilik ustuvor bo‘lib, asosan misgarlik, duradgorlik, novvoylik, bo‘yoqchilik, turli buyumlar yasash, tijorat va hokazolar[1] bilan shug‘ullanishgan.

Shu o‘rinda XX asr boshlarida Buxoro shahri mahalliy aholisining etnik mansubligini aniqlash masalasida mavjud bo‘lgan an’analarga to‘xtalib o‘tsak. XIX asr o‘rtalari – XX boshlarida Buxoro shahriga tashrif buyurgan xorijlik, xususan, rossiyalik sayyohlar, elchilar, sharqshunos va hokazo kishilar tomonidan yozib qoldirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, shaharning mahalliy aholisi orasida millat tushunchasiga Markaziy Osiyoning ko‘pchilik o‘lka, viloyat va shaharlarida yevropaliklardan farqli o‘laroq lisoniy emas, diniy tomondan yondashilgan[2]. Ayniqsa, Buxoro shahri aholisi orasida, xususan, sunniy mazhabdagi o‘zbek va tojik aholi o‘zlarini keskin ravishda “o‘zbek” yoki “tojik” deb ajratmasdan, o‘zlarini umumiy nom bilan “buxorolik” yoki “musulmon” deb ataganlar[3], o‘zlaridan mazhab jihatidan farqlanuvchi, asli marvlik yoki eronlik bo‘lgan shia mazhabidagilarni esa “forsiy”, “eroniy”, “marviy” deb nomlaganlar.

Buxoro amirligi va boshqa o‘zbek xonliklari aholisining etnik tarkibi to‘g‘risida so‘z borganda ko‘pchilik “mahalliy aholining turklashuvi”ga urg‘u berishgani ko‘zga tashlanadi. Shu o‘rinda O‘rta Osiyo, shu jumladan, mamlakatimiz tarixiga aloqador bir masalaga – “turklashgan” iborasi turlicha talqin etiladi.

Markaziy Osiyo xalqlari etnogeneziga aloqador ravishda o‘tgan asrning o‘rtalarida bir qator olimlar tomonidan aytib o‘tilgan fikrlarni yana bir bor ko‘zdan kechirsak. Chunki, ular tomonidan aytib o‘tilgan fikrlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Buni etnik tarixga bag‘ishlangan bir qator taqdqiqotlarda bir vaqtlar sovet olimlari tomonidan bildirilgan fikrlarga qayta-qayta to‘xtalib o‘tilgani ham tasdiqlaydi. Jumladan, A.Asqarov yuqorida keltirib o‘tilgan tadqiqotlarida shunday yozadi: “Xalqlarning kelib chiqishi masalasida, ya’ni etnogenez va etnik tarixni o‘rganishda maxsus nazariy va ilmiy metodologik ishlanmalar borki, ularga asoslanmay turib, biror xalqning kelib chiqishi haqida to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lish qiyin. Har bir xalq hozirda yashab turgan hududlari bilan azaldan bog‘likdir. Dunyoda biror xalq yo‘qki, o‘zining etnogenez bosqichida mintaqadagi boshqa etnik birliklar bilan aralashganligiga urg‘u beradi[4].

Bu haqda O‘rta Osiyo xalqlari tarixining bilimdoni prof. S.P.Tolstov shunday degan edi: “Hozirgi zamon O‘rta Osiyo xalqlarining birontasi ham qadimgi etnik guruhlarga bevosita borib taqalmaydi. Aksincha, ularning shakllanishida, yerli xalqlar va tevarak-atrofdan ko‘chib kelgan xalqlar har xil nisbatda o‘z aksini topgan”[5]. Bundan o‘zbek xalqi ham mustasno emas. Shunday ekan, Movaraunnahr va qadimgi Xorazm hududlari azaliy vatani bo‘lgan o‘zbek xalqining ilk ajdodlari ikki til – turkiy va eroniy tillar turkumidagi qabila va elatlar bo‘lib, ularning uzoq yillar davomida aralashuvi, qorishuvi jarayonida o‘zbek elati xalq bo‘lib shakllandi. Demak, o‘zbek xalqi ikki xil tillarda so‘zlashuvchi ajdodlardan, ya’ni etnik birliklardan tarkib topgan”.

Shuningdek, qadimgi turklarga bugungi tojik xalqining etnik shakllanishi asosiy bo‘lmasa-da, qo‘shimcha komponent sifatida ishtirok etgan deb qarash lozim. Tojikistonda “turk”, “qarluq” singari turkiy urug‘larning bir qismi tojikcha

so‘zlashishlari va urug‘ nomlarini saqlagan holda o‘zlarini “tojik” sifatida e’tirof etishlari buning kichik misolidir[6].

Agar musulmon Sharqining biror davlatida muayyan bir maqsadda – tijorat, sayohat va hokazo sabablar tufayli bo‘lib turgan Buxoro amirligi vakillari o‘zlarini “buxoriy”, “buxoriy musulmon”, “buxorolik” deb tanitish bilan birga ayrim hollarda “Turkiston o‘lkasining Buxoro muzofotidan”, “turkistonlik” deb tanishtirgan hollarda ham uchragan. Shunga o‘xshash vaziyatga duch kelgan O‘rta Osiyoda yashovchi, xususan, Qo‘qon va Xiva xonliklari vakillari xorijiy mamlakatlarda o‘zlarini “Farg‘ona”dan, “Xorazm”dan yoki bo‘lmasa “Turkistonning Farg‘onasi”dan, “Turkistonning Xorazmi”dan deb tanitganlar. Bu holat ko‘pincha Makkada va Usmonli saltanati hududlarida bo‘lgan o‘rta osiyolik musulmonlar o‘zligi bilan bog‘liq ravishda yozma manbalarda uchraydi. Shuningdek, klassik o‘rta asrlarda farqli holda so‘nggi o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo aholisiga nisbatan xorijda – Eron, Kichik Osiyo, Arab o‘lkalari, Hind yerlari, Rossiya va Yevropada ko‘p hollarda “buxoriy”, “buxoroli”, “o‘zbek” kabi geografik va etnik atamalar ishlatilgan[7].

Buxoro amirligi aholisi orasida mintaqaga nisbatan bir qator atamalar qo‘llanilib, ular orasida “Turkiston”, “Movarounnahr”, “Buxoro” kabi atamalar birmuncha keng yoyilgan geografik nomlar edi[8]. Qizig‘i shundaki, ingliz hukumatiga bo‘ysungan Hindistondagi Boburiy hukmdorlar muhitida ham O‘rta Osiyoni “Turkiston”, “Turon” deb atash an’analari davom etgan. Asli samarqandlik shoir bo‘lgan Mirzo G‘olib o‘z she’rlarida ajdodlarining turonlik, turkistonlik ekaniga urg‘u berib yozgani bundan darak beradi[9].

Jizzax va O‘ratepa, Qashqadaryo va Surxon vohasi, Sharqiy Buxoro (Hisor va unga qo‘shni bekliklar)da “o‘zbek” nomi ko‘proq o‘z urug‘ini biluvchi o‘zbek tilli aholi orasida keng tarqalgan bo‘lsa, Amudaryo sohillaridagi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmani turkmanlar turlicha urug‘ nomlari bilan atalishi bilan birga “turkman” etnonimi ularga nisbatan umumlashtiruvchi atama sifatida ishlatilgan.

Amirlikning Qizilqum cho‘llari, Nurota va Jizzax atrofidagi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi orasida “qozoq” etnonimi nisbatan keng yoyilgan. Shunga

o‘xshab Zomin va Baxmal qirg‘izlari, Pomir va Hisor tog‘larida yashagan ko‘chmanchi qirg‘iz aholi “qirg‘iz” etnonimi bilan yuritilgan[10].

So‘nggi o‘rta asr yozma manbalaridan ayon bo‘lishicha, Buxoro amirligining asosiy aholisini asosan o‘zbek va tojiklari tashkil etishi bilan birga, amirlikning Amudaryo qirg‘oqlari aholisining sezilarli bir qismi turkmanlardan iborat bo‘lgan[11]. Shuningdek, Buxoro amirligining Zarafshon vodiysi shimolidagi cho‘l va dashtlarda qozoq va qoraqalpoqlar, amirlikning Badaxshon qismida esa o‘nlab kamsonli eroniy elatlar yashashgan.

Mahalla nomlarining turkiy (o‘zbek)cha ekanligi ham bu yer aholisining etnik kelib chiqishi o‘zbek bo‘lib, keyinchalik tojik tilida so‘zlashishga o‘tganliklarini tasdiqlaydi. Shuningdek, 95 xonadondan iborat Mehtar Anbar mahallasining tojik tilli aholisi o‘zlarni “Buxoro o‘zbeklari” (“O‘zbakoyi Buxoro”) deb tanishtirganlar[1]. O.A.Suxarevaning yozishicha, buxoroliklar ayrim hollarda tojikcha so‘zlashuvchi o‘zbeklarni “tojikigo‘y” yoki “forsigo‘y”, ona tili o‘zbekcha bo‘lganlarni esa “turkigo‘y” deb atashgan[1].

Shuningdek, ayrim mahallalar (Arroki misgaron, Nodir-vays, So‘zangaron, Mag‘g‘oki attoron va h.k.)ning aholisi tojikcha so‘zlashib, o‘zlarini “tojik” deb hisoblashgan. Bu toifa aholining xo‘jalik hayoti va kasb-korida ko‘pincha hunarmandchilik ustuvor bo‘lib, asosan misgarlik, duradgorlik, novvoylik, bo‘yoqchilik, turli buyumlar yasash, tijorat va hokazolar[1] bilan shug‘ullanishgan.

Shu o‘rinda XX asr boshlarida Buxoro shahri mahalliy aholisining etnik mansubligini aniqlash masalasida mavjud bo‘lgan an’analarga to‘xtalib o‘tsak. XIX asr o‘rtalari – XX boshlarida Buxoro shahriga tashrif buyurgan xorijlik, xususan, rossiyalik sayyohlar, elchilar, sharqshunos va hokazo kishilar tomonidan yozib qoldirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, shaharning mahalliy aholisi orasida millat tushunchasiga Markaziy Osiyoning ko‘pchilik o‘lka, viloyat va shaharlarida yevropaliklardan farqli o‘laroq lisoniy emas, diniy tomondan yondashilgan. Ayniqsa, Buxoro shahri aholisi orasida, xususan, sunniy mazhabdagi o‘zbek va tojik aholi o‘zlarini keskin ravishda “o‘zbek” yoki “tojik” deb ajratmasdan, o‘zlarini umumiy nom bilan “buxorolik” yoki “musulmon” deb ataganlar[1], o‘zlaridan mazhab

jihatidan farqlanuvchi, asli marvlik yoki eronlik bo‘lgan shia mazhabidagilarni esa “forsiy”, “eroniy”, “marviy” deb nomlaganlar.

O.A.Suxarevaning tadqiqotlarida keltirilishicha, buxoroliklar “tojik” nomi ostida, asosan, eronlik shialarni tushunishgan, tojik tilli sunniy aholini esa ko‘pincha “o‘zbek” deb bilishgan[1]. Olimaning tadqiqotlarida Buxoroning deyarli har bir mahallasining etnik tarkibiga to‘xtalish mobaynida bir qator ma’lumotlar keltirilgani ko‘zga tashlanadi.

Buxoro amirligi va boshqa o‘zbek xonliklari aholisining etnik tarkibi to‘g‘risida so‘z borganda ko‘pchilik “mahalliy aholining turklashuvi”ga urg‘u berishgani ko‘zga tashlanadi. Shu o‘rinda O‘rta Osiyo, shu jumladan, mamlakatimiz tarixiga aloqador bir masalaga – “turklashgan” iborasi bo‘yicha turli tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni ixchamlashtirib qarab chiqadigan bo‘lsak, bu ibora mazmunida uch-to‘rt xil ma’no yotadi.

Izohlar zamon va makonga qarab u yoki bu darajada o‘zini oqlaydi. Biroq ko‘pchilik tadqiqotchilar keltirilgan izohlar orasida so‘nggisi mustasno qolgan izohlarni dastak qilib olishadi[12]. Fanda turkiylarning muttasil ravishda boshqa yerlarni egallaganliklari va boshqa tilli xalqlarni “turklashtirgan”liklari fikri ustuvorlik qiladi[4]. Qaysi bir hudud uchun bu fikr to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, biroq Markaziy Osiyoning katta qismi, Yevroosiyo dashtlari, Sharqiy Turkiston, Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i, Shimoliy Afg‘oniston va Xuroson uchun bunday talqin ko‘p hollarda o‘zini oqlamaydi. Agar bu masalaga Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i misolida ko‘z tashlaydigan bo‘lsak, bir vaqtlar aholisi asosan sharqiy eroniy tilli etnoslar – qadimgi xorazmiylar, sug‘diylar va baqtriylar bo‘lgan o‘troq aholi bu yerlarga kelgan bir siqim ko‘chmanchi turkiylar natijasida o‘z tillarini yo‘qotib “turkiylashib ketgani” borasidagi ko‘zqarashlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilib bo‘lmaydi.

Birinchidan, Amudaryo – Sirdaryo oralig‘idagi tarixiy geografik viloyatlar – asosan, Choch, Farg‘ona va Ustrushona, qisman Sug‘d, To‘xoriston va Xorazm aholisining bir qismini ancha qadimdan turkiy etnoslar tashkil etgan[13]. Ikkinchidan, Amudaryo – Sirdaryo oralig‘iga mintaqaning shimol va shimoli-sharqiy hududlaridan turkiy aholi ko‘chib kelar ekan, bu yerga ozchilik bo‘lib kelishmagan, aksincha,

mahalliy aholi tarkibini o‘zgartirib yuboradigan darajada nufuzga ega holda kelib joylashishgan. Ya’ni buni “majburiy turklashtirish” emas, balki “turkiylashishga moyil” muhitga turkiylarning yangi qatlami kelib joylashuvi, deb tushunish kerak. Qolaversa, biror yozma manbada turkiylarning o‘z tilini majburiy ravishda tiqishtirganliklari yoki mahalliy aholini “bizning tilda gapirasan” deya buyruq berganliklariga doir ma’lumot uchramaydi. Aksincha, turkiy boshqaruvchi toifaning ko‘pchilik holatlarda o‘z ona tili qolib, mahalliy tildan rasmiy til sifatida foydalanganliklari va begona tillarga rag‘bat ko‘rsatganliklari ma’lum. Demak, “turkiylashish” deganda asosan turkiylarning yangi muhitlarda aholining ko‘pchilik qismini tashkil qilishlarini tushunish va bu jarayonning ko‘proq majburiy emas, ixtiyoriy ravishda yuz berganligiga e’tibor qaratish kerak.

O‘rta Osiyoda rivojlangan o‘rta asrlarda – Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Chig‘atoy ulusi, Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar davrida, ya’ni qariyb ming yillik bir davr kesimida mintaqada faol kechgan etnomadaniy jarayonlar Buxoro amirligida yanada teranroq mazmun kasb etgan. Mintaqa xalqlari etnogenezida deyarli har bir siyosiy o‘zgarish o‘z izini qoldirgan bo‘lsa, Mang‘itlar sulolasi davrida bu jarayon o‘zining tugallanish bosqichlaridan biriga qadam qo‘ygan. Rivojlangan o‘rta asrlarda – Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar davrida mintaqa aholisi orasida “turk-u tojik” iborasi keng yoyilgan bo‘lsa, Chig‘atoy ulusi va Temuriylar davrida “turk-u tojik” iborasining yonida “chig‘atoy” entosiyosiy atamasi keng tarqalgan[6]. Bu an’ananing izlari Buxoro amirligi aholisi orasida, ayniqsa, Sharqiy Buxoro va Surxon vohasida “o‘zbek chig‘atoy”, “tojik chig‘atoy” kabi aholi guruhlarining o‘nlab aholi maskanlariga ega bo‘lganliklarida o‘z ifodasini topadi.

Xullas, Buxoro amirligi doirasida etnik o‘zlikni anglash masalalari bilan qisqacha tanishib chiqish shundan darak beradiki, bu masalada amirlikning barcha hududida bir xil umumlashgan va muqimlashgan sobit tushuncha bo‘lganligi deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Aholi orasida bu masalaga o‘zining tili, etnik kelib chiqishidan ko‘ra ko‘proq diniy mansublik nuqtayi nazaridan yondashuv omili ustuvorlik qilgan. Shuningdek, aholi davlat boshqaruvchisi – amirni barcha musulmonlarning boshini biriktiruvchi, diniy qoidalarni nazorat va himoya qiluvchi shaxs sifatida bilishgan.

Amirlik hududida o‘zaro qo‘shni va aralash yashagan turli tillarda so‘zlashuvchi, farqli xo‘jalik turmush tarziga ega etnoslar orasida “buxorolik”, “buxorolik musulmon” tushunchasi umumiylik kasb etgan. Buning asosida esa qariyb to‘rt yuz yil davomida O‘rta Osiyoning markaziy va janubiy hududlari Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Mang‘itlar kabi diniy va etnomadaniy jihatdan bir-biriga yaqin sulolalar tomonidan boshqarilishi va Buxoro shahri ushbu sulolalarning poytaxti vazifasini bajarganligi yotadi. Bu shaharning asrlar davomida nafaqat siyosiy-iqtisodiy markaz, balki diniy va ilm-fan o‘chog‘i vazifasini bajarib kelganligi esa butun mamlakat bo‘ylab turli elatlar orasida o‘zaro uyushuv va yagona mafkura shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сухарева О.А. Кварталная община позднефеодалного города Бухары ... – С. 123, 172, 181, 196, 216
2. Бабаяров Г., Асанов Э. Был ли этническим досоветский город? О палитрах идентичности Бухары начала XX века. – С. 43-48.
3. Сухарева О.А. Бухара XIX – нач. XX вв. – С. 127.
4. Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O‘zbekiston, 2015. – Б. 29-31
5. Толстов С.П. Основные проблемы этногенеза народов Среденей Азии // СЭ, 1947. №VI-VII. – С. 304
6. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 76
7. Кюгелген Анке фон К. Легитимация среднеазиатской ... – С. 22-23.
8. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Введение, перевод, примечания, указатели Б. А. Ахмедова. – Ташкент: Изд-во «Фан» УзССР. – С. 32-33, 56, 86.
9. Амир Файзулла. Эрурман Туркистон наслидан / www.kh-davron.uz
10. Bregel Y. An Historical Atlas of Central Asia. – P. 70-78.
11. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб, 1843. – С. 53-65; Гребенкин А.Д. Таджики. Узбеки. / Русский Туркестан. Сборник. – М., 1873. – С. 1-50, 51-110.
12. **Хомидов Д.Р. Лингвистическое исследование гидронимов региона исторического проживания таджиков в Мавераннахре.** Автореф. дисс. докт. фил. наук. – Душанбе: ТНУ, 2018. – С. 10-13.
13. Kamoliddin Sh.S. Ancient Türkic Toponyms of the Middle Asia (Turkic Place-Names in Ancient and Early Medieval Sources) / LAP LAMBERT Academic Publishing. – Saarbrücken, 2010. – P. 7-10;
14. Бабаяров Г. Государственный строй Западно-Тюркского каганата.: Автореф. дис... докт. ист. наук. – Т.: ИВ АН РУз, 2012. – С. 19-21.

15. Bozorboevich R. K. The Ethnic Structure of the Population of the Bukhara Emirate //International Journal on Integrated Education. – Т. 4. – №. 12. – С. 8-12.